

TIQXMMI Buxoro filiali o'qituvchisi Nasibaxon Ibodova xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda o'z ma'ruzasi bilan ishtirok etdi

TIQXMMI Buxoro filiali o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida assistenti Nasibaxon Ibodova Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Qashqadaryo viloyati hokimligi hamkorligida o'tkazilgan Amir Temur tavalludining 685-yilligi munosabati bilan "Amir Temur - dunyo olimlari va adiblari nigohida" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etdi.



Dunyoning 14 davlatidan 20 dan ortiq olimlar ishtirok etgan anjumanda "Ibrohim Mo'minov talqinida Amir Temur shaxsiyati" mavzusidagi materiallari bilan ma'ruza qilib, xorijiy olimlar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi va dramaturg Yunus O'g'uz o'z qalamiga mansub kitobini Nasibaxon Ibodovaga sovg'a qildi.



TIQXMMI Buxoro filiali matbuot xizmati